



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA ILG'OR TEXNOLOGIYALARNING BIZNES VA ISH O'RINLARIGA TA'SIRI.

Mamarajabova Shahnoza Normo'min qizi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Buhgalteriya hisobi

yo'nalishi

2-bosqich talabasi.

shahnozamamarejabova.01.11@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamlashtirish va sun'iy intellektning mehnat bozori hamda ish o'rinlariga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, texnologiya, , ish o'rinlari, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt.

Kirish. Zamonaviy dunyoda internet va texnologiyalar jamiyatning barcha jabhalariga, xususan, ish bozori va biznesga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Globalizatsiya va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida kompaniyalar ish yuritish usullarini o'zgartirib zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanishga majbur bo'lmoqda. Raqamli transformatsiya natijasida biznes jarayonlari avtomatlashtirilib, marketing strategiyalari raqamli platformalar asosida shakllanishi va ish bozori tobora innovatsion texnologiyalarga moslashishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog'liqni saqlash, fan-ta'lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, Internet-banking va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o'zining yuqori samaralarini bermoqda. Davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi — bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi¹.

¹ B.A. Begalov, M.K. Abdullayev. "Raqamli iqtisodiyot"/Darslik. –Taqrizchilar.: "Iqtisodiyot", 2023.-352 bet. 6-bet



Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola internet va texnologiyalarning biznes va ish o‘rinlariga ta’sirini o‘rganish va uning salbiy oqibatlarining ta’sirini kamaytirish borasida taklif va xulosala berish uchun Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) kabi rasmiy manbalar, ilmiy maqolalardan foydalanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar va tadqiqotlar tahlili, natijalar. Raqamli texnologiyalar faqat ish o‘rinlari hajmiga ta’sir ko‘rsatmaydi — ular mehnatning mohiyatini va insonlarning ish faoliyatini qanday tushunishini ham o‘zgartiradi.²

Doktorant Rustam Tohirov Solijonovich o‘z ilmiy tadqiqotida internet texnologiyalarining biznes sub’yektlariga ta’sirini o‘zgaruvchan deya baholab, iqtisodiy jihatdan o‘sish va rivojlanish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochishini ta’kidlaydi. Haqiqatdan ham raqamli transformatsiyalarning iqtisodiy sub’yektlar nuqtayi nazaridan tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri turlicha bo‘lib, biznesning har tomonlama rivojlanishiga katta turtki beradi. Biroq iqtisodchi kiberxavfsizlik, ish o‘rinlarining qisqarishi va tadbirkorlarning internet texnologiyalaridan foydalanishni muntazam yo‘lga qo‘yishdagi iqtisodiy imkoniyatlarini e’tiborga olmagan.³

Iqtisodchilar R.H. Ayupov va G.R. Boltaboevalar bu borada quyidagi fikrlarni bildirishgan: “Jamiyatning raqamli texnologiyalar tomon burilishi ro‘y berishiga butun jahon internet tarmog‘ining sifati oshishi hamda aloqa tizimlarining rivojlanishi sababchi bo‘ldi. Natijada katta hajmdagi ma’lumotlar almashinish va ularni to‘plash imkoni paydo bo‘ldi, bu esa, o‘z navbatida, to‘plangan axborotni qayta ishlashga, bashorat qilishga, asoslangan qarorlar qabul qilishga va xilma-xil usullarda foyda olishga imkon beradi. Bularning barchasi uchun esa mos keluvchi infratuzilma, boshqacha qilib aytganda, global axborot platformalari ekotizimini yaratish zarur bo‘ladi. Biroq bunda ma’lumotlarni yo‘qotish, biznesni yo‘qotish, ish

² Lorraine Charles, Shuting Xia and Adam P. Coutts. Digitalization and Employment. A Review. P-15.

³ Rustam Tohirov Solijonovich “Internet texnologiyalarining kichik biznes sub’yektlariga ta’siri”



o‘rinlarining qisqarishi, xavfsizlikka putur yetishi riski va modernizatsiya qilish zarurati vujudga keladi. Bu masalalarni tezda hal qilish zarur, chunki bu borada kechikish jiddiy risklarga olib kelishi mumkin. Hozirda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarda raqamli iqtisodiyotning afsona yoki haqiqat ekanligi emas, balki bu o‘zgarishlarning jamiyatga qanday xizmat qilishi muhim rol o‘ynaydi.”⁴

So‘nggi 10 yillikda ijodiy fikrlash va inson onggiga taqlid qilish qobiliyatiga ega zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun‘iy intellekt jadallik bilan rivojlanmoqda. Bugunga kelib u, allaqachon, o‘z yutuqlari bilan insonlar hayotiy faoliyatiga kattagina ta’sir o‘tkazib ulgurdi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish deyarli barcha yirik iqtisodiy tarmoqlarga kirib borgan va mehnat bozorlari tuzilmasini o‘zgartirgan. Texnologik yutuqlar sababli ish o‘rinlarining keng ko‘lamda yo‘qolishidan xavotirlar mavjud bo‘lishiga qaramay, Yevropa va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) mamlakatlarida sof bandlik va mehnat unumdorligiga neytral yoki hatto ijobiy ta’sir kuzatilgan.⁵

Ayniqsa, Yevropa Ittifoqining 28 mamlakatida 2030-yilgacha o‘sishi prognoz qilingan kasblar asosan yuqori darajadagi ta’lim va ijtimoiy hamda talqin (interpretatsion) ko‘nikmalarni talab qiladigan sohalarda, shuningdek, tozalovchilar va ovqat tayyorlash yordamchilari kabi oddiy kasblar orasida ko‘p uchramoqda. Shu bilan birga, mashina operatorlari va metall mashinasozlik ishchilari kabi o‘rta malakali kasblarning ulushi kamayadi.⁶

Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF)ning hisob-kitoblariga ko‘ra, 2025-yilga borib, insonlar va mashinalar o‘rtasidagi mehnat taqsimotining o‘zgarishi natijasida 85 millionta ish o‘rni yo‘qolishi mumkin, biroq shu bilan birga, insonlar, mashinalar va

⁴ R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T. TMI, 2020, B-38, B-575

⁵ David Autor and Anna Salomons, ‘Is Automation Labor-Displacing? Productivity Growth, Employment, and the Labor Share’, National Bureau of Economic Research, (2018)

⁶ David Spencer et al., ‘Digital Automation and the Future of Work’, European Parliament, (2021).



algoritmlar o'rtasidagi yangi mehnat taqsimotiga moslashgan 97 millionta yangi kasb paydo bo'lishi kutilmoqda.⁷

2025-yilga kelib, ish joylarida insonlar va mashinalar vazifalarni bajarishga teng vaqt sarflashlari prognoz qilinmoqda. Shu sababli, ko'plab xodimlar uchun raqamlashtirishning asosiy ta'siri mehnat muhitining o'zgarishi bilan bog'liq holda, ish mazmuni va tabiatidagi o'zgarishlar orqali seziladi.

Xulosa. Ilmiy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalarida raqamli texnologiyalar eng ko'p aqliy faoliyatni kam talab qiladigan, past malakali, muntazam qo'lda bajariladigan ish turlari (rutin ishlar)ga ta'sir ko'rsatishi haqidagi fikr keng tarqalgan. Yaqin yillarda eng ko'p o'rnini yo'qotishi mumkin bo'lgan kasblar qatoriga ma'lumotlarni kiritish operatorlari, ma'muriy va ijrochi kotiblar, buxgalteriya va ish haqi bo'yicha mutaxassislar, buxgalterlar va auditorlar, yig'uvchilar hamda zavod ishchilari, biznes xizmatlari va ma'muriy boshqaruvchilar kiradi. Biroq, yangi ish o'rinlari ilg'or sohalarda yaratiladi — masalan, ma'lumot tahlilchilari va olimlari, sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish mutaxassislari, robototexnika muhandislari, axborot xavfsizligi tahlilchilari hamda raqamli transformatsiya bo'yicha mutaxassislar. Yangi kasblarning paydo bo'lishi soha xususiyatiga ham bog'liq bo'lishi mumkin, masalan, iste'molchilar sektorida ijtimoiy tarmoqlar bo'yicha mutaxassislar yoki moliya xizmatlarida FinTech muhandislari.⁸

Takliflar:

1. Ta'lim tizimini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish – yoshlarni texnik, raqamli va analitik ko'nikmalarga o'qitish, sun'iy intellekt, dasturlash va ma'lumot tahlili bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirish zarur.

⁷ WEF, The Future of Jobs Report 2020, (2020).

⁸ Lorraine Charles, Shuting Xia and Adam P. Coutts. Digitalization and Employment. A Review. P-17.



2. Bandlik siyosatini qayta ko‘rib chiqish – avtomatlashtirish ta’sirida qisqaradigan sohalarda ishlovchi xodimlarni qayta tayyorlash dasturlarini joriy etish lozim.
3. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish – barcha hududlarda internet va texnologik imkoniyatlarni kengaytirish orqali raqamli tengsizlikni kamaytirish muhim.
4. Munosib mehnat sharoitlarini ta’minlash – raqamli mehnat bozorida ishlovchilarning huquqlarini himoya qilish, mehnat xavfsizligi va barqaror daromad kafolatlarini mustahkamlash kerak.
5. Ayollar, yoshlar va zaif ijtimoiy guruhlarini qo‘llab-quvvatlash – raqamli iqtisodiyotda ularning faol ishtirokini ta’minlash uchun grantlar, o‘quv dasturlari va maxsus dasturiy siyosatlar ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lorraine Charles, Shuting Xia and Adam P. Coutts. Digitalization and Employment. A Review.
2. David Autor and Anna Salomons, ‘Is Automation Labor-Displacing? Productivity Growth, Employment, and the Labor Share’, National Bureau of Economic Research, (2018)
3. Andre Jungmittag, ‘Robotisation of the Manufacturing Industries in the EU: Convergence or Divergence?’, The Journal of Technology Transfer 46, no. 5, (2021): 1269–90
4. David Klenert, Enrique Fernández-Macías, and José-Ignacio Antón, ‘Do Robots Really Destroy Jobs? Evidence from Europe’, Economic and Industrial Democracy, 26, (2022)
5. WEF, The Future of Jobs Report 2020, (2020).



6. B.A. Begalov, M.K. Abdullayev. “Raqamli iqtisodiyot”/Darslik. – Taqrizchilar. “Iqtisodiyot”, 2023.-352 bet.
7. R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T. TMI, 2020, 575 bet.
8. Rustam Tohirov Solijonovich “Internet texnologiyalarining kichik biznes sub’yektlariga ta’siri”

Internet saytlari:

1. <https://www.ilo.org>